

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrasida assistenti Javmanov Jamshed Abdusamatovich tomonidan "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan "Davlatning iqtisodiy siyosati" mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq amaliy darsi ishlanmasiga

## TAQRIZ

Ochiq amaliy darsining mavzusi "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi, amaliy dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to'g'ri tanlangan. Ishlanmada ochiq amaliy darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o'qitish pedagogik texnologiyalari berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari to'liq ochib berilgan.

"Davlatning iqtisodiy siyosati" amaliy dars mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyasi, davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqida turli xil nazariya va qarashlar, davlatning milliy iqtisodiyotdagi vazifalari, davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi va vazifalari, davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari va tartibga solish dastaklari, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning o'zaro bog'liqligi, nazariy va amaliy ahamiyati, mavzu yuzasidan qisqa savol javoblar, krossvord hamda testlar tuzilgan.

Umuman olganda, J.Javmanov tomonidan tayyorlangan "Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi" mavzusidagi amaliy dars ishlanmasi "Ochiq ma'ruzalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" talablariga mos keladi va uni o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"  
kafedrasida dotsenti, i.f.n.



*I. Salamov*

I. Salamov

*[Signature]*